

**TASAVVUF VA AXLOQ, FALSAFA VA E'TIQOD**

*Axatov Lutfillo Karamatilloyevich, Chirchik davlat pedagogika universiteti*

**SUFI AND MORALITY, PHILOSOPHY AND FAITH**

*Akhatov Lutfillo Karamatilloyevich, Chirchik State Pedagogical University*

**СУФИЙ И МОРАЛЬ, ФИЛОСОФИЯ И ВЕРА**

*Ахатов Лутфилло Караматиллоевич, Чирчикский государственный педагогический университет*

**Annotatsiya:** *Falsafiy-axloqiy qarashlar mohiyati so'fiylar hayoti va tasavvufiy qarashlar yordamida tahlil qilingan. So'fiylar axloqi va falsafiy mushohadasi irrational yondashuv yordamida tasavvufning rivojlanishiga asos bo'ladi. Bunda axloqiy qarashlarni anglash uchun tasavvuf va so'fiylarga ilmiy yondashuvlar misolida qaralди.*

**Kalit so'zlar:** *Falsafa, ilm, tazkira, tasavvuf (arab til: التصوف), islam, axloq, idrok, mutafakkir.*

**Abstract:** *The essence of philosophical-ethical views was analyzed with the help of mystical life and mystical views. The development of Sufism is based on an irrational approach to the philosophical understanding of Sufi ethics. An example of Sufism and scientific approaches to Sufis was considered to understand ethical views.*

**Key words:** *philosophy, science, tazkira, mysticism-Sufism (Arabic: الناصوف), Islam, ethics, perception, thinker.*

**Аннотация:** *Сущность философско-этических взглядов анализировалась с помощью суфийского быта и мистических взглядов. Развитие суфизма основано на иррациональном подходе к философскому осмыслению суфийской этики. Для понимания моральных взглядов был рассмотрен пример научных подходов к суфизму и суфиям.*

**Ключевые слова:** *философия, наука, тазкира, мистицизм-суфизм (араб. الناصوف), ислам, этика, восприятие, мыслитель.*

**KIRISH.** Ilmning mohiyati e'tiqod va fan oralig'inining ma'rifatda birlashuvini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Shuning uchun "Kim ilm olsa, unga amal qilsa va boshqalarga o'rgatsa, u kishi osmonlarga ulug' inson deb chaqiriladi", deb aytilgan[9; 80-B]. Ilmning qiymati barcha sohalarni bir butunlikda o'rganilishidadir. Ba'zan "diniy ilm"

yoki "dunyoviy ilm" deb tahlil qilinishi esa, jo'n-sayoz fikrlovchilarning dunyoqarashidan o'zga narsa emas!

Har bir sohani alohida (qismlarda) o'rganish bu ilm emas, bilim va uning sistemasini tashkil qiladi. Bilimlar jamlanmasi esa Ilm mehvarini tashkil etadi. Olinadigan hikmat (xulosa) esa



<https://orcid.org/0000-0002-9804-6220>

e-mail: [l\\_axatov@cspl.uz](mailto:l_axatov@cspl.uz)

ma'rifat – mukammal ilmni tashkil etadi! Va bu o'z navbatida tadqiqotchi va tahlilchilar tomonidan imlgacha bo'lgan soha(lar) – bilimga oid qarashlar tarzida baholanishini ko'rish mumkin. tahlilchi(lar)ning fikri bu ilm deb emas, dunyoqarash yoxud nazariya (faraz) tarzida ham baholanadi. Shuning uchun har bir soha yaxlit bir butun deb aytilishdan ko'ra, alohida-alohida tahlil qilinib, keyin ma'lum ma'noda bir maqsad (ilm)ga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday qarashlar xoh e'tiqodga oid bo'lsin, xoh biologik yaratilishga qaratilsin, farqi yo'q. Muhimi, murakkablikdan oddiylikka, noaniqlikdan aniqlikka qarab borishida. Buni biz Islomning ilk davrlarida Qur'oni Karimning nozil bo'lishi misolida ko'rishimiz mumkin. U paytda oyat-oyat, tarqoq tazda nozil bo'lganligi aytiladi. Buning hikmatini esa, yodlash oson bo'lishi va qo'shimcha(lar) bo'lishi bilan izohlaydilar. Bu borada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Qur'onning tarqoq tushishining hikmatlaridan yana biri – uni yodlash va unga amal qilish oson bo'lishi uchun edi", deb aytgan[10; 26-B].

Ilmning mohiyatini anglash esa soddalik (oddiylik)dan boshlanar ekan, demak, ilm o'rganish qiyin emas. Shuning uchun barchani ilm o'rganishga chorlov bor. Islom falsafasiga ko'ra ilm o'rganish "majburiy" sanaladi. Bizning tahlilimizdagi "Tasavvuf va axloq, falsafa va e'tiqod"ning asliyati ham soddalikdan boshlanadi. Bunda tasavvufni anglash uchun axloqqa, axloqqa tushunish uchun esa e'tiqodga, e'tiqodni tushunish uchun esa tafakkurga murojaat qilmoqlik bilan erishiladi. Tafakkur va uning mohiyati esa falsafa ilmi orqali o'rganishda namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra tasavvufni axloq ilmi bilan uzviylikda (Tasavvuf etikasi) tahlil qilish bor.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Mavzuga oid manbalar tahlilida tazkirachilik, tasavvuf va so'fiylikka oid qarashlar tadqiq qilinib, tasavvuf adabiyoti va tazkiravavislikka katta hissa qo'shgan buyuk shoir, muafakkir va tazkiravavislardan Fariduddin Attorning (1145-1230) "Tazkirat ul-avliyo" (Avliyolar tazkirasi), mavlono Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) "Nafahot ul-uns..." va hazrat Navoiyning (1441-1501) "Nasoyim ul-muhabbat" asarlari berilgan. Asarning ikkinchi nomi: "Maqomot ul-avliyo" (Avliyo zotlar, ya'ni solih zotlarning fazilatlari va karomotlari). Mazkur asarda yetnish ikki, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra avliyolar

sonida farqlar mavjud. Masalan, "Forscha matn toshbosma nashrida 96 ism berilgan, asarning birinchi tahririda esa 69 ta avliyo ismi va faoliyati bayon etilgan"[1; 18-B]. Asarda har bir avliyo zotning hol va hayoti, faoliyati, turli mavzu va masalalarga oid fikr-mulohazalari, qarashlari va hikmatli so'zlar bayoni berilgan. "Tazkirat ul-avliyo"da shariat, tariqat, ma'rifat, tavakkul, rizo, sabr, tahammul, shukr, taqvo (parhezkorlik) kabi tasavvufiy istilohlar (iboralar)larga turli mutafakkir va mashoyixlarning fikrlari, qarashlari aynan keltirilgan.

"Tazkirat ul-avliyo"ning tazkirachilikdagi ahamiyati va xususiyatlaridan muhimi sifatida shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'plab mutafakkirlar unga ergashib, o'z asarlarini yaratish orqali bu an'anani davom ettirganlar. Mavlono Jomiyning "Nafahot ul-uns", Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarlari buning yorqin misolidir. "Tazkirat ul-avliyo" fors tilida yozilgan bulib, keyinchalik usmonli turk tiliga, chig'atoy turkchasiga, uyg'ur tiliga va fransuz tiliga tarjima qilingan.

"Nasoyim ul-muhabbat"ning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z borar ekan, avvalo shuni aytish kerakki, asarning o'ziga xos xususiyatini aniqlash uchun mavjud asarni boshqa bir shu tipdag'i asar bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Biz "Nasoyim ul-muhabbat"ni "Nafahot ul-uns" bilan qiyoslar ekanmiz, hazrat Navoiy tazkiraning kirish qismini tarjima qilmasdan o'zi yozganini ma'lum qiladi[5; 5-B]. "Nasoyim ul-muhabbat" muqaddima (hamd, na't va asar yozilish sababi, "Bu toifa muqaddima tamhidi", "Bu toifa a'mol-u af'oli va muomilat-u riyozotidin ba'zini zikr qilmoq"), 770 shayx zikrini o'z ichiga olgan asosiy qism va xotimadan iborat[3;130-133-B].

Hazrat Navoiy asarning yozilish sabablari haqida to'xtalar ekan, Jomiy va o'z tazkirasi o'rtasidagi farqlarni aytib o'tadi. Unga ko'ra:

- "Nafohatu-l-uns"da Farididdin Attorning "Tazkiratu-l-avliyo" asaridagi ba'zi avliyolar tushirib qoldirilgan, Navoiy esa ularni o'z tazkirasida zikr qilgan;

- Jomiyda hind va turk mashoyix (shayx)lariga keng o'rinn ajratilmagan, lekin hazrat Navoiy mumkin qadar ularning barchasini o'z asarida aks ettiradi; Shuningdek, shoir "Nasoyim ul-muhabbat"da Abdurahmon Jomiy va uning zamondoshi bo'lgan valiy zotlar hayoti va faoliyatini ham yoritganini ma'lum qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mutafakkirlar ilmiy merosida tasavvufga oid (so‘fiylik) ma‘lumotlar keng yoritilgan bo‘lib, tazkirachilik (avliyolar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar) manbalari asosida, islom aqidasiga ko‘ra, mo‘jiza va karomat haqligi tadqiq qilinadi. Duolar ijobati, g‘ayb sirlaridan ogoh bo‘lish, inson ko‘nglidagi o‘yni anglash, suv va taomsiz ro‘za tutish, bir lahzada dunyoning u chetidan bu chetiga borib qolish kabi oddiy inson aqli uchun g‘ayritabiyy bo‘lgan holatlar avliyolarga xos bo‘lib, ularni ko‘p oshkor qilmaslik valiining yuksak maqomini bildiradi.

Asarda avliyolarga doir ma‘lumotlar turli hajmda bo‘lib, ba‘zilari haqida bir jumla bilan kifoyalanilsa, ba‘zi shayxlar ta’rifiga keng o‘rin ajratiladi. Avliyolarning tarjimai holidagi ma‘lumotlar muayyan mezonzarga ega emas: ayrim shayxlarning yashagan yillari, joylari, kasbi korlari va hokazolar bilan bog‘liq ma‘lumotlar batafsilroq keltirilsa, ba‘zilarining faqat karomat yoki o‘gitlaridan parcha beriladi.

“Nasoyim ul-muhabbat” tarkibida tilga olingan avliyolar orasida islomdagi to‘rt mazhab boshliqlari – imom A‘zam, imom Molik, imom Shofe‘iy, imom Ahmad ibn Xanbaldan tortib Muhammad G‘azzoliy, Bahouddin Valad, o‘g‘li Jaloliddin Rumi, Rumiyning o‘g‘li Sulton Valad kabi buyuk zotlar haqidagi turli qiziqarli, ibratlari hikoyalarga duch kelamiz. Ushbu avliyolar haqidagi ma‘lumotlar ilmiy asosga ega bo‘lib, tasavvuf tarixini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi (Masalan, Jaloliddin Rumiya bolaligida Fariddin Attor o‘zining “Asrornoma” asarini hadya qilishi yoki Shamsiddin Tabriziy va Rumi uchrashuvi bilan bog‘liq ma‘lumotlar).

Umuman olganda, hazrati Alisher Navoiyning avliyolar tarjimai holiga bag‘ishlangan mazkur “Nasoyimu-l-muhabbat min shamoyimu-l-futuvvat” asari shoirning yetuk mutasavvif olim sifatidagi faoliyatini ko‘rsatuvchi muhim manbadir[6; 25-26-B].

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Navoiy “Nasoyimul muhabbat” “Nafahot ul-uns” tarjimasi ekanligi, lekin o‘rni-o‘rnida qisqartirilgan va to‘ldirilganini e’tirof etadi. Aytish kerakki, asarda aynan tarjima qilingan va matnga erkin yondashib o‘girilgan o‘rinlar bor.

Birgina Jaloliddin Rumi firqasi olinsa – aynan tarjima qilingan. Lekin ayrim qisqartmalar bor. Masalan, Mavlaviydin so‘rabdilar: Darvesh kay

gunoh ko‘nad? Magar darvesh beishtaho xo‘radki, taomi beishtaho darveshro gunohi azim ast (Ya‘ni, Darvesh qachon gunoh qiladi? Agar darvesh beishtaha ovqat yesa, beishtaha taom yemoq darvesh uchun gunohi azimdir) [2;362-B].

Rumiyning as‘hoblariga vasiyati qismida takror aytilgan shunchaki so‘zlar ham tushirib qoldirilgan. Ular Rumi siy whole, uning qarashlariga putur yetkazmaydi, shu bois tushirib qoldirilgan. Chingizzon voqealarini Najmuddin Kubro firqasida Jomiy kofirlar deydi, Navoiy “totorlar” deb beradi[7;15-B].

Asarning xotima qismi xuddi “Fotiha” dek yakunlagan bo‘lib, uni biz quyida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi: “Ilohi, bu avliyoulloh asrorahumning sharif anfosi barakoti haqqi va bu kitob mutolaasig‘a mashg‘ul bo‘lgan azizlar dimog‘in mazkur bo‘lgan abror muhabbati nasoyimidan muattar va bahramand qilg‘aysen va bu kitob humorasotig‘a mash‘uf bo‘lg‘on ahli tamayyuzlar ko‘nglin mastur bo‘lg‘on axyor futuvvat shamoyimidan munavvar va arjumand etgaysen. Va alarning tufayli roqimning ham tiyra ro‘zgorig‘a safoye va hirmon zulmatidin qororg‘on ko‘zlariga hidoyat quyoshidin ziyoye nasib qilg‘aysen. Va podshohi islomkim, iyomon ahlig‘a mujibi farog‘at-u amniyat va zamon xaylig‘a boisi rafohiyat-u jam‘iyatdurki, bular bo‘lmasa, bu nav’ nusxa tartib-u tasnifi va bu tavr kutub jam‘u ta’lifi mutaassir, balki muhol-u mutaazzirdur, sihhat-u umr-u davlatini muxallad va insof-u adolatini muabbad tutqil va a’dosini maqhur va ahibusini mansur qilg‘il. Omin, yo Rabb al-olamin!”[2;51-B]. Tazkiraning yuqoridagi ko‘tarinki ruhda tugallanishi haqiqatning abadiy g‘alabasi bilan bog‘liq desak adashmagan bo‘lamiz.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Xulosa qilib aytganda, Attor ham, Jomiy va Navoiy ham ijodkor, ayni paytda so‘fiy ijodkordir. Ma‘lumki, mashhur rus sharqshunosi YE.E.Bertels “Navoiy va Attor” nomli maqolasida, to‘g‘ri ta’kidlanganidek, Alisher Navoiyning “tarjimon shoir” emasligini isbotlagan edi[4; 20-B].

Aslida Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarining o‘zi, Navoiyning esa “Nasoyim ul-muhabbat” asarining o‘zi har ikki ijodkorning so‘fiy ekanligining, so‘fiy qalb egasi bo‘lganining yorqin ifodasi desak, xato bo‘lmaydi albatta. Zero, so‘fiylar haqida adabiy asar yozish so‘fiy ijodkorlar an’anasidir. So‘zimizning asosi sifatida Sulamiyning

“Tabaqat us-so‘fiya”, Isfahoniying “Hilliyat ul-avliyo” kabi mashhur tasavvufiy asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Attor va Navoiy ham xuddi ana shunday so‘fiy ijodkorlardir. Zero, ular salaflar an’anasini davom ettirib, muvaffaqiyatga erisha oldi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Фаридуддин Аттор. “Тазкират ул-авлиё” Т., Faafur Fулом нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017. – В. 18.
2. Алишер Навоий. “Насойим ул-муҳаббат ” – Тошкент: Mavarounnahr nashriyoti, 2017.
3. Akhatov, L. (2020). The problem of tolerance in oriental philosophy. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(7), 130-133.
4. Халлиева Г. XX аср рус шарқшунослигига ўзбек мумтоз адабиёти тадқики. Докторлик дисс... автореферати. – Т., 2016. – В.20.
5. Рамазонов Н. “Насойим”нинг ўзига хос хусусиятларига доир / Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 2001.В.25-26.
6. Исламов Х.И. “Насойимул муҳаббат” Алишера Навои и его научно-критический текст: Дисс. на соискание канд филол. наук. – Т., 1990.С.57.
7. Habibullayev A. Tasavvuf falsafasi fanidan o‘quv uslubiy majmua. Т., 2012.-В.15.
8. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. –М., 1965.С.45.
9. Г.Қудратуллоҳ қизи, Р.Ишмуҳамедов, М.Нормуҳаммедов. Анъанавий ва ноанъанавий таълим. – Самарқанд, Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, 2019. – В. 80.
10. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Мазҳаблар – бирлик рамзи. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2022. – В. 26.

